



## SIROJIDDIN SAYYIDNING “YAXSHILIK ESKIRMAGAY” (QIRQ HADIS) TO‘PLAMIGA KIRGAN SHE‘RLARINING G‘OYAVIY-BADIIY TALQINI

**Mardanova Gulshan**

*Samarqand davlat universiteti adabiyotshunoslik  
yo‘nalishi 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Sirojiddin Sayyidning “Yaxshilik eskirmagay” to‘plamidagi Qirq hadisni o‘zida jamlagan she‘rlarining g‘oyaviy va badiiy tahlili haqida so‘z yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *she‘r, hadis, jannat, gunoh, savob, qiyomat, xudo, ilm, duo*

**Abstract:** *This article talks about the ideological-artistic analysis of Sirojiddin Sayyid’s poems, which contain forty hadiths, in the collection “Yaxshilik eskirmagay”.*

**Keywords:** *poem, hadith, heaven, sin, reward, doomsday, religion, god, science, prayer*

Sharq adabiyotida “arbain” an‘anasi mavjud bo‘lib, shoirlar eng sara sahih hadislardan qirqtasini saralab, uning mazmuni-mohiyatini bir she‘rda talqin qilishgan. Shoirlarning bu yo‘nalishda ijod qilishida Rasululloh sallolohu alayhi va sallamning : “Kimki mening ummatim uchun uning din ishidan bo‘lgan qirqta hadisimni saqlab bersa, Qiyomat kuni Alloh uni faqih va olimlar guruhida tiriltiradi”<sup>105</sup> degan gaplari asos bo‘lgan. Bu an‘anani dastlab Abdurahmon Jomiy “Chihil hadis” i bilan boshlab bergan. Alisher Navoiy davom ettirib “Arbain” asarini yozgan. Ulug‘ ijodkorlardan o‘rnak olib hozirgi zamonaviy ijodkorlardan bir qanchasi bu ishga qo‘l urganlar. Xususan, Abdulla Oripov “Haj daftari” turkumi, Jamol Kamol “Qirq hadis ilhomi” turkumi, Shukur Qurbonning “Hikmatlar anjumani”, Sirojiddin Sayyid “Yaxshilik eskirmagay”, A‘zam O‘ktamning “Ikki dunyo saodati” asarlarini misol keltirish mumkin.

Sirojiddin Sayyid “Yaxshilik eskirmagay” to‘plamiga kirgan she‘rlarida turlicha mavzulardagi hadis mazmunlari she‘rga solingan. Arbain turkumidagi she‘rlar odatda hadisning arab tilidagi varianti, shundan so‘ng uning o‘zbekcha talqini keltirilgan bo‘lsa, Sirojiddin Sayyid dastlab hadisning arabcha variantini keltirmay, faqat o‘zbekcha talqinini keltiradi. Adib hadis mazmunlari aks ettirilgan bunday she‘rlarning ko‘pchiligini to‘rt, sakkiz misralik ko‘rinishda talqin qiladi. Shoir dastlabki she‘rini Musurmonlarning sevimli kalomi “Bismillahir roxmanir rohiym”dan boshlaydi va Allohdan Ota-onasining gunohlarini kechirishni so‘rab iltijo qiladi:

Sening dargohingda ko‘zlarimda nam,  
Endi ayon menga ul borar joyim.  
Kechirgil otamning gunohlarini,  
Onamga umr ber o‘zing Xudoyim.

<sup>105</sup> Imom Muhiddin Zakariy ibn Saraf Navaviy. Qirq hadis. “Sharq” nashriyoti. T.2018.



Har biri to'rt misralik to'rt banddan iborat bu she'rda el-u yurtini ham omon asrashini, undan yuz o'girmasligini Allohdan iltijo qilib so'raydi. She'rni Yaratgandan madad tilab, shu misralar bilan yakunlaydi:

Dunyoda eng oliy So'z o'zingdiansan  
O'zing bir gap solding balki dilimga.  
Xudoyim, qirq eshik ochilmoqdadir,  
Xudoyim, yorug' qil so'zni tilimga.

Shoir tanlagan hadislarining she'riy sharhlarida ko'pincha ilm, ilmi kishilarning martabasi haqida so'z borilgan:

Ilm-u ma'rifatli elning iqboli,  
Hargiz zalolatga giriftor bo'lmas.  
Ezgu ilmlarni o'rgatgan zotlar,  
Ikki dunyoda ham aslo xor o'lmas.

Ushbu she'r o'n ikki satrli bo'lib, "Foydali ilmlarni o'rgatuvchi odamning gunohi kechirilishini so'rab har bir narsa hatto dengizdagi baliqlar ham istig'for aytadilar" hadisining she'riy sharhi hisoblanadi.

She'rda yana shunday satrlar bor:  
Farzandlar shul sabab topgaylar kamol,  
Yurt shunday zotlarga iftixor aytar.  
Gunohlarin so'rab dengizlardagi  
Baliqlar ham hatto istig'for aytar.<sup>106</sup>

Shoir bu she'ri orqali foydali ilmlarni egallash, nafaqat ilm egalash, balki uni boshqalarga o'rgatishning savobi naqadar ulug' bo'lishi haqida fikrga yanada urg'u beradi. Istig'for so'ziga so'ziga diqqat qilsak, bu so'z lug'atda "gunohni kechirishni, afv etishni so'rab iltijo qilish" deb beriladi. "Istig'for" so'ziga qofiyadosh so'z sifatida "iftixor" so'zini keltiradi. "Iftixor" lug'atda "faxrlanish, maqtanish" deya izohlanadi. Foydali ilmlarni o'rganib, ularni o'rgatgan kishining gunohini so'rab hatto dengizdagi baliqlar ham istig'for aytadi. Alloh Taolo ko'p istig'for aytgan bandasining gunohini agar ular dengiz ko'pigicha bo'lsa-da kechirishi haqida muborak hadislarida yozilgan. "...Ey odam bolasi, agar gunohing bulutlarga yetsa-da, mendan istig'for tilasang, seni mag'firat etaman..."<sup>107</sup>

Yana bir she'rida foydali ilm haqida so'z boradi:  
Dilni ziyo birlan chulg'ab o'rang-u,  
Ma'rifat Mulkida chiroq bo'linglar.  
Ollohdan foydali ilm so'rang-u,  
Foydasiz ilmdan yiroq bo'linglar.

<sup>106</sup> Sirojiddin Sayyid. Asarlar. II jild. "Sharq" nashriyoti. T. 2018.

<sup>107</sup> Imom Navaviy. "Arbain hadis.



Arbain tukumiga kiruvchi ushbu she'rni oldingisining mazmuniy davomi sifatida ko'rishimiz mumkin. She'r to'rtlik ko'rinishida yozilgan. "Ziyo", "chiroq" so'zlari to'rtlikning mazmuniy markazini tashkil etadi. Dilni – ziyo, ya'ni ilm ziyosi bilan chulg'ash va ma'rifat mulkida chiroqdek nur sochish, ya'ni ilm bilan qalblarni yoritish haqida so'z borilgan. Ziyo asl izohi nur, shu'la kabi ma'nolarda qo'llaniluvchi bu so'z ko'chma ma'noda ilm-ma'rifat ma'nolarini anglatadi. Ilmli kishilarni chiroqqa qiyoslaydi. Shoir chiroq so'ziga yiroq so'zini qofiyadosh qilib keltirish orqali hadis mazmunini ajoyib tarzda badiiy ifoda etgan. Bu so'zlar hadisning " Tangridan foydali ilmni so'ranglar, foydasiz ilmdan esa chetlashing" mazmunini ochib berishda katta rol o'ynagan.

To'plamdagi ko'pchilik she'rlar to'rtlik shaklida yozilgan. Adib shu to'rt misra orqali butun hadis mohiyatini badiiy tarzda ochib bergan. "Nasihah", "Sadaqa", "Nima yaxshi", "Odam tanasidagi idish", "Shukrona", "Ilm", "Xayo" kabi she'rlar bunga misol bo'la oladi. Mana ayrim namunalar bilan tanishamiz:

Ne'matga shukr qil. Poyingda yer bor,  
Shukr qil, tepangda turibdi osmon.  
Bilsang, har ne'matga shukronang sening,  
Uning zavolidan saqlagay omon.

Musulmon kishi Allohning har bir ne'matiga shukr qilishi kerak. Bizga berilgan son-sanoqsiz ne'matlar uchun birgina lafz bilan shukrona qilish uning zavol topishidan asrar ekan.

Adib tazod san'atidan foydalanib she'rga ajoyib badiiy jozibadorlik baxsh etgan. Yer va osmon, ne'mat va zavol so'zlari bu badiiy san'atning yuzaga chiqishida asosiy rol o'ynagan.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, adib har bir hadisning mazmunini yuzaga chiqarish uchun aynan hadis mazmunidan kelib chiqib qofiya topishga harakat qilgan. Va ayrim to'rtliklarda qofiya tizimiga amal qilinmaganini ko'rishimiz mumkin. Quyidagi "Nima yaxshi" deb nomlangan she'r misolida buni ko'rishimiz mumkin:

Yakkalik yaxshidir yomon ulfatdan,  
Yakkalikdan ko'ra bir yaxshi hamdam.  
Foydali gap yaxshi jimlikdan ko'ra,  
Sukut yaxshiroqdir befoyda gapdan.

"Yomon ulfatdan yakkalik yaxshi, yakkalikdan ko'ra yaxshi ulfat yaxshi, befoyda gapdan sukut saqlagan yaxshi" hadisining badiiy ifodasi bo'lmish ushbu she'rda qofiyadosh so'z sifatida olingan "ulfatdan" va "gapdan" so'zlari qofiyani to'la yuzaga chiqarmagan.

Yana bir hadisning she'riy ifodasiga e'tiborimizni qaratamiz:  
Olloh sizga bergan oy va yil uchun



Arzir har lahzaning naqshi bo'lsangiz.  
Azaldan yomonga yomondir zamon.  
Zamon yaxshi erur – yaxshi bo'lsangiz.  
Har kimga dildagi niyati yo'ldosh,  
Ezgu maqsadlari bir umr yordir.  
**Zamondan hech qachon koyinmangizkim,  
Zamonning egasi Parvardigordir.**

Bu she'rdan oldin “Zamondan koyinmanglar, zero zamonning egasi Ollohdir” hadisini keltiradi. Ushbu hadis ko'pchilik muhaddislarning kitoblarida keltirilgan. Jumladan, Abu Zar- Jundub ibn Juqoda (r.a) va Abu Abdurahmon Muoz ibn Jabal (r.a)dan: Rasululloh s.a.v. dedilar:Qayerda, qaysi zamonda , qay holatda bo'lsang ham Allohdan taqvo qill, boshqa bir hadisda “Zamondan nolimang, zamonning egasi Ollohdir” – deyiladi.

Hozirgi vaqtlarda kishilar tomonidan “zamon aynidi”, “zamon yomon bo'lib ketdi” degan jumalarni tez-tez eshitib qolamiz. Adibning ushbu she'ri yosh avlod ongida hadisning mazmunini yanada chuqurroq anglashga xizmat qilib, ularni to'g'ri xulosa chiqarishga, o'z-o'zini tahlil qilib mushohada qilishga chorlaydi. Zero zamoni ayblash bu Uning egasi Yaratganni ayblash bilan barobardir.

Yana bir she'ri “Baxtsizlik” deb nomlanib, unda baxtsizlikning uch asosiy sababi izohlangan. Shoir she'rni xalq maqollaridan keltirish bilan boshlaydi: “Ollohning toshidir, bandaning boshi”.

Baxtsizlik uch narsada: otda, xotinda, hovlida.

Ollohning toshidir bandaning boshi,

Har banda goh yolg'iz, goh arsadadir.

Sen ham fig'on chekma borliqni o'ylab,

Baxtsizlik aslida uch narsadadir:

Ya'ni yomon bo'lsa, mingan tulporing,

Baxtsizlik erur bu – alamlar berur.

Ya'ni tan mahraming – jufti haloling.

Yomon bo'lsa agar – baxtsizlik erur.

Ko'ngil sitamlarga ko'nikkay ,balki,

Balki, barchasiga dosh bersa bo'lur.

Va lekin tor bo'lsa uy-joying, yana

Qo'shning yomon bo'lsa, baxtsizlik erur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sirojiddin Sayyid o'z ijodida ustoz ijodkorlar: Jomiy, Navoiy, A. Oripov kabi arbain an'anasida ijod qilib, hadislarning badiiy talqiniga qo'l urgan. Va bizningcha, bu yo'nalishda muvaffaqiyatga erishgan. Uning ijodida bu ,albatta, yangi yo'nalish edi. Ijodkor qirq hadisni o'zida aks etgan she'rlarida turli





mavzularga murojaat qiladi. Adib jamiyat haqidagi qarashlarini hadislar bilan asoslashga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sirojiddin Sayyid. Asarlar. II jild. "Sharq" nashriyoti. T.2018.
2. Arbain hadis. Imom an-Navaviy. "Sharq" nashriyoti. T. 2018.
3. Ulug'bek Hamdam. "Yangi o'zbek she'riyati" T. 2012.
4. Muhammad (s.a.v.)dedilar..."Arbain" turkumi. Nodira Afoqova. www.kh-

davron.uz